



Inson va jamiyat





Inson

- Insonning o‘ziga xos bo‘lgan asosiy fazilatlari bu — uning axloqodobi, ta’limtarbiyasi, yurtiga nisbatan muhabbati, uning tinchligi va ravnaqi yo‘lidagi shaxsiy javobgarligi hisoblanadi.
- Inson nasliga xos bo‘lgan xususiyat — uning ongliligi, tafakkur qila olishi, axloqiy normalar ni aqlan va jismonan bajara olishidir. Boshqa tirik mavjudotlardan hech biri insondek o‘z faoliyatini tar tibga sola olmaydi. Darhaqiqat, faqat insongagina ato etilgan bунyodkorlik, yaratuvchanlik fazilatlari uni ja miyat gultojiga aylantiradi



Inson





- *Jamiyatdagi munosabatlar qanchalik boy, xilmaxil bo'lsa, uning ma'naviy madaniy sifatlari ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Jamiyat astasekin taraqqiy etib, fuqarolik jamiyatiga aylanadi.*



Jamiyat

- *Jamiyatdagi munosabatlar qanchalik boy, xilmaxil bo'lsa, uning ma'naviy madaniy sifatlari ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Jamiyat astasekin taraqqiy etib, fuqarolik jamiyatiga aylanadi.*

- Insonlarning bu jamiyatda yashashdan maqsadi — farovon turmush kechirishdan iborat. Vatanimizdan yetishib chiqqan qomusiy allomalar Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug' mutafakkirlar jamiyatning paydo bo'li shi, mohiyati va istiqbollari to'g'risida ilg'or ilmiy qa rashlarni ilgari surganlar



Jamiyat





Jamiyat





“



*Fuqarolik jamiyatida inson
tafakkuri*

- Tafakkur jarayoni faqat insonning ongi bilan emas, balki qalbi va ruhiyati bilan ham uzviy bog'liqlikda kechadi. Fikrlovchining ichki dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning fikrlash saviyasi ham, xattiharakati ham shunga yarasha bo'ladi. Undagi fikrmushohada til orqa li bayon etiladi, boshqalar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Qomusiy allomalar inson tafakkur qilish orqali ta'limtarbiyani rivojlantirishi, o'zi ni kamolot sari yetaklashini ta'kidlaganlar. Zero, tafak kur va ma'naviyat o'zaro bog'liq hamda birbirini to'ldi radi.



Inson aqli qanchalik o'tkir va teran bo'lmasin, fikr lash doirasi tor va tuban bo'lsa, bu aql va zakovat vay ronkor kuchga aylanadi. Shu ma'noda, ma'naviyat inson tafakkuri, aqlzakovati, butun faoliyatini tizginlab tura di. Bunda ma'naviyatning o'rni ustunlik qiladi. Ma'naviyat bor joyda faqat umuminsoniy qadriyatlar inson aqlzakovati, kuchqudratini bunyodkorlik sari yo'nalti rishi mumkin. Shuning uchun ham qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aqlidrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi



Jamiyat





Dars sabog'i.

- *Insonlar birbirlariga nisbatan mehroqibatli, xushmuomalali, ahilinoq, iltifotli bo'lish lari tufayli turmush farovonlashadi. Oila, mahallako'yda o'zaro totuvlik yuzaga keladi. Shunday ekan, jamiyatning ravnaq topishi, o'z navbatida, insonlarning faqat ezgu maqsadlar yo'lida yashashlariga bevosita bog'liq*